

Farg'ona viloyatida madaniyat va san'at muassasalari faoliyati


2024- yil uchun

- I. Faoliyat yuritayotgan muzeylar
- II. Faoliyat yuritayotgan teatrlar
- III. Konsert tashkilotlari
- IV. Botanika va hayvonot bog'lari
- V. Madaniyat va istirohat bog'lari
- VI. Kutubxona muassasalari
- VII. Madaniyat va san'at muassasalari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Faoliyat yuritayotgan muzeylar

Farg'ona viloyatida 2024- yilda faoliyat yuritayotgan muzeylar soni 12 tani tashkil etgan. Faoliyat yuritayotgan jami 12 ta muzeylarning 10 ta filiallari mavjud.

Faoliyat yuritayotgan muzeylar soni (birlikda)



2024- yilda muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni jami 191,2 ming kishini tashkil etdi. Tashrif buyuruvchilar tarkibida umumta'lim maktablari o'quvchilari hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalarining ulushi 32,0 % ni tashkil etgan.

Muzeylar soni va tashrif buyuruvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil uchun)

	Muzeylar soni, jami (birlikda)	Tashrif buyuruvchilar soni (ming kishi)
Farg'ona viloyati	12	191,2
Farg'ona shahar	10	39,2
Qo'qon shahar	1	10,4
Farg'ona tumani	1	141,6

Muzeylardagi asosiy fond va eksponatlari soni 2024-yil uchun (ming birlikda)

Farg'ona viloyati muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar saqlanmoqda, 2024- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 161,4 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 63,3 mingta (64,5 %) ga ortgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni

Faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni

Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni

II. Faoliyat yuritayotgan teatrlar

2024- yilda viloyatimizda jami teatrlar soni 5 tani tashkil etib, ularda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni 1 205 taga yetgan. Ushbu spektakllarga 334,0 ming nafar tomoshabinlar tashrif buyurgan.


Teatrlar soni va tomoshabinlarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil uchun)

	Teatrlar soni, jami (birlikda)	Spektakl (tomoshalar) soni (birlikda)	Tomosha binlar soni (ming kishi)
Farg'ona viloyati	5	1205	334
Farg'ona shahar	3	942	226,9
Qo'qon shahar	1	153	69,4
Marg'ilon shahar	1	110	47,7

III. Konsert tashkilotlar


Viloyatimizda 2024- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 6 ta bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 ta (20 %)ga oshgan. Konsert tashkilotlar tomonidan namoyish etilgan konsertlar soni 178 tani tashkil etgan. Ushbu konsertlardagi tomoshabinlar soni 364,2 ming nafarga yetgan.

**Faoliyat yuritayotgan konsert tashkilotlari
hamda o'tkazilgan konsertlar soni
(birlikda)**



IV. Botanika va hayvonot bog'i

Farg'ona viloyatida jami 1 ta hayvonot bog'i mavjud bo'lib, u Farg'ona shahrida o'z faoliyatlarini olib bormoqda. 2024- yilda hayvonot bog'iga 120,9 ming kishi tashrif buyurigan.




V. Madaniyat va istirohat bog'lari

Farg'ona viloyatida 2024- yilda 6 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud.

Viloyatda madaniyat va istirohat bog'larining umumiy maydoni 42,9 gektarni tashkil qilib, ushbu bog'larga 2024- yil davomida qatnovlar soni 380,0 ming kishiga yetgan. Shuningdek, mazkur bog'larda 156 ta attraksionlar mavjud.

Faoliyat yuritayotgan madaniyat va istirohat bog'lari soni



	Madaniyat va istirohat bog'lari soni, jami (birlikda)	Attraksionlar soni (birlikda)	Jami qatnovlar soni (ming kishi)
Farg'ona viloyati	6	156	380,0
Farg'ona shahar	1	60	74,4
Marg'ilon shahar	1	28	110,0
Buvayda tumani	1	24	30,5
Quva tumani	1	24	34,0
Farg'ona tumani	1	9	10,2
Yozyovon tumani	1		

VI. Kutubxona muassasalari soni

Farg'ona viloyatida 2024- yilda **2 108** ta kutubxona muassasalari mavjud bo'lib, ulardan kitob va jurnallar jamg'rmasi 2 095,6 ming nusxani, ulardan foydalanuvchilar soni 1047,5 mingta, berilgan kitob va jurnallar soni 14 247,2 ming nusxani tashkil etdi.

VII. Madaniyat va san'at muassasalari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Madaniyat — inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

Foydali havolalar:

Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom

MSKO 2011

MSKO-0 2013

Tayyorlash uchun mas'ul:

Aholi turmush darajasi va Ijtimoiy
soha statistikasi bo'lini boshlig'ining
o'rinbosari
R. Kadirova

Manzil: 150103, Farg'ona sh.,

Oq yo'l ko'chasi, 104- A uy

El. manzil: far@stat.uz

Tel.: 73- 241-98-28

